



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20909194>

Formativ baholash kompetensiyasining pedagogik mohiyati va tuzilmasi

Ortiqov G'ulomjon Solijonovich –
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada formativ baholash kompetensiyasining pedagogik mohiyati, mazmuni va tarkibiy tuzilmasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning keng joriy etilishi sharoitida formativ baholashning o'quvchilar ta'lim natijalarini yaxshilashdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida milliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, formativ baholash kompetensiyasining motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyatli va refleksiv komponentlari aniqlangan. Shuningdek, formativ baholashning samarali teskari aloqa, o'z-o'zini baholash va ta'lim jarayonini individuallashtirish imkoniyatlarini ta'minlovchi pedagogik mexanizm sifatidagi xususiyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari formativ baholash kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim sifati va pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirishning muhim omili ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: formativ baholash, kompetensiya, formativ baholash kompetensiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik faoliyat, teskari aloqa, baholash mezonlari, refleksiya, ta'lim sifati, pedagogik texnologiyalar.

Педагогическая сущность и структура компетенции формативного оценивания

Аннотация. В данной статье научно-теоретически проанализированы педагогическая сущность, содержание и структурное строение компетенции формативного оценивания. В условиях широкого внедрения компетентностного подхода в современной системе образования раскрыты роль и значение формативного оценивания в повышении образовательных результатов учащихся. В ходе исследования были проанализированы научные взгляды отечественных и зарубежных ученых, а также нормативно-правовые документы, на основе чего определены мотивационный, когнитивный, операционно-деятельностный и рефлексивный компоненты компетенции формативного оценивания. Кроме того, раскрыты особенности формативного оценивания как педагогического механизма, обеспечивающего эффективную обратную связь, самооценивание и возможности индивидуализации образовательного процесса. Результаты исследования показывают, что развитие компетенции формативного оценивания является важным фактором повышения качества образования и профессиональной компетентности педагогов.

Ключевые слова: формативное оценивание, компетенция, компетенция формативного оценивания, компетентностный подход, педагогическая деятельность, обратная связь, критерии оценивания, рефлексия, качество образования, педагогические технологии.

The pedagogical essence and structure of formative assessment competence

Annotation. *This article provides a scientific and theoretical analysis of the pedagogical essence, content, and structural composition of formative assessment competence. In the context of the widespread implementation of the competency-based approach in modern education systems, the role and significance of formative assessment in improving students' learning outcomes are highlighted. The study analyzes the scientific views of national and international scholars as well as relevant regulatory and legal documents, identifying the motivational, cognitive, operational-activity, and reflective components of formative assessment competence. Furthermore, the article reveals the characteristics of formative assessment as a pedagogical mechanism that ensures effective feedback, self-assessment, and opportunities for the individualization of the educational process. The findings demonstrate that the development of formative assessment competence is an important factor in enhancing the quality of education and the professional competence of teachers.*

Keywords: *formative assessment, competence, formative assessment competence, competency-based approach, pedagogical activity, feedback, assessment criteria, reflection, quality of education, pedagogical technologies.*

KIRISH

Jahon ta'lim tizimida so'nggi yillarda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashga nisbatan yondashuvlar tubdan o'zgarib bormoqda. An'anaviy baholash tizimida asosan ta'lim natijalarini yakuniy nazorat qilishga e'tibor qaratilgan bo'lsa, zamonaviy pedagogik konsepsiyalarda o'quv jarayonining o'zida o'quvchilar rivojlanishini kuzatish, ularga o'z vaqtida teskari aloqa berish hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi formativ baholash mexanizmlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kompetensiyaviy yondashuvning ta'lim amaliyotiga keng joriy etilishi baholash jarayonining ham mazmun va mohiyatini yangicha talqin qilishni talab etmoqda. Shu bois formativ baholash kompetensiyasi pedagog faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga moslashtirish hamda o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarida o'quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish asosiy maqsad sifatida belgilangan bo'lib, bu jarayonda baholashning zamonaviy usullaridan foydalanish muhim pedagogik talab sifatida qayd etilgan [2; 14-b]. Mazkur talablar pedagoqlardan nafaqat bilimlarni nazorat qilish, balki o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatish, tahlil qilish va ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi baholash kompetensiyasiga ega bo'lishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Pedagogik ta'lim klasteri va kompetensiyaviy yondashuv asoslariga bag'ishlangan ilmiy-metodik manbalarda ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida pedagoqlarning baholash kompetensiyasini rivojlantirish zarurligi alohida ta'kidlanadi. Kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarning faqat nazariy bilimlarini emas, balki ularni

amaliy faoliyatda qo'llash qobiliyatini ham aniqlashga yo'naltirilgan bo'lib, bu esa baholashning yangi shakl va metodlarini qo'llashni talab etadi [3; 14-b]. Shunday ekan, formativ baholash kompetensiyasining mazmuni, tarkibiy tuzilmasi hamda pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda kompetensiyaviy yondashuv asosida baholash metodikasini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar formativ baholashning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o'rganishni taqozo etmoqda. Tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarda formativ baholash o'quvchilarning o'quv faoliyatini muntazam monitoring qilish, ta'lim natijalarini yaxshilash va ta'lim jarayonini individuallashtirish imkonini beruvchi samarali vosita sifatida tavsiflanadi [1; 22-b]. Shu bilan birga, mazkur yondashuv pedagogning kasbiy kompetentligini oshirish hamda reflektiv faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Formativ baholash tushunchasining ilmiy asoslari xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, P.Black va D.Wiliamning tadqiqotlarida formativ baholash o'quvchilar ta'lim natijalarini yaxshilashga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik mexanizm sifatida tavsiflanadi. Olimlarning fikricha, o'quv jarayonida muntazam ravishda amalga oshiriladigan baholash va samarali teskari aloqa o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi hamda o'zlashtirish natijalarini yaxshilaydi [4; 18-b]. Ushbu ilmiy qarashlar bugungi kunda dunyo ta'lim amaliyotida formativ baholashning keng qo'llanilishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Formativ baholashning pedagogik mohiyatini ochib berishda M.Heritage tomonidan ilgari surilgan konseptual yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, formativ baholash o'qitish va o'rganish jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u o'quvchilarning mavjud bilim darajasini aniqlash, kelgusidagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash hamda ta'lim strategiyalarini moslashtirish imkonini beradi [7; 36-b]. Bu esa formativ baholashning nafaqat nazorat vositasi, balki rivojlantiruvchi pedagogik texnologiya ekanligini ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida samarali teskari aloqaning ahamiyati J.Hattie va H.Timperley tomonidan ham ilmiy asoslab berilgan. Olimlarning tadqiqot natijalari o'quvchilarga berilgan sifatli va maqsadli teskari aloqa ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatgan [6; 84-b]. Formativ baholash aynan teskari aloqa mexanizmi orqali o'quvchilarning o'z-o'zini baholash, o'z faoliyatini tahlil qilish va keyingi rivojlanish bosqichlarini rejalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. D.R.Sadlarning ilmiy qarashlarida esa formativ baholash o'quvchilarni ta'lim maqsadlari bilan tanishtirish, baholash mezonlarini anglatish hamda ularda o'z faoliyatini mustaqil nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida izohlanadi [8; 128-b]. Mazkur yondashuv o'quvchilarning reflektiv kompetensiyalarini rivojlantirish hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik texnologiyalar nazariyasida ham formativ baholashning ahamiyati keng yoritilgan. O'. Tolipov va M. Usmonboyeva pedagogik texnologiyalarni samarali amalga oshirishda baholashning diagnostik va rivojlantiruvchi funksiyalariga alohida e'tibor qaratadilar [9; 95-b]. Shuningdek, O'. Tolipov pedagogik mahorat tarkibida baholash faoliyati pedagogning kasbiy kompetentligini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan biri ekanligini ta'kidlaydi [10; 143-b]. Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, formativ baholash kompetensiyasi ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda kompetensiyaviy yondashuvni samarali amalga oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Biroq formativ baholash kompetensiyasining pedagogik mohiyati, uning tarkibiy tuzilmasi hamda amaliy mexanizmlarini tizimli ravishda tadqiq etish zarurati saqlanib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotda formativ baholash kompetensiyasining pedagogik mohiyati va tuzilmasini aniqlashga qaratilgan nazariy-pedagogik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, tizimli yondashuv hamda

shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyalari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida pedagogika, baholash nazariyasi va ta'lim sifati masalalariga bag'ishlangan ilmiy manbalar tahlil qilindi.

Tadqiqotning nazariy manbalarini formativ baholash va kompetensiyaviy yondashuv bo'yicha xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Xususan, formativ baholashning mazmuni va ahamiyatini yorituvchi ilmiy qarashlar, pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaviy ta'limning nazariy asoslari tahlil qilindi [4; 18-b]. Shuningdek, ta'lim tizimida baholash faoliyatini tashkil etishga doir me'yoriy hujjatlar ham o'rganildi [2; 14-b].

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

- ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;
- qiyosiy tahlil;
- tizimlashtirish va umumlashtirish;
- konseptual tahlil;
- pedagogik hodisalarni modellashtirish.

Ilmiy manbalarni tahlil qilish orqali formativ baholash tushunchasining turli talqinlari o'rganildi va ularning umumiy hamda farqli jihatlari aniqlandi. Qiyosiy tahlil yordamida milliy va xalqaro tajribalarda formativ baholashning qo'llanilish xususiyatlari taqqoslandi. Tizimlashtirish va umumlashtirish usullari asosida formativ baholash kompetensiyasining tarkibiy komponentlari ajratib ko'rsatildi. Tadqiqotning konseptual asosini formativ baholashning o'quvchilarning ta'limiy rivojlanishiga ko'maklashuvchi, pedagogik faoliyatning samaradorligini oshiruvchi va ta'lim natijalarini takomillashtiruvchi mexanizm sifatidagi talqini tashkil etdi [7; 41-b]. Shu asosda formativ baholash kompetensiyasining pedagogik tuzilmasi ishlab chiqildi.

NATIJJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, formativ baholash kompetensiyasi pedagogning o'quv jarayonida o'quvchilar faoliyatini muntazam kuzatish, baholash, tahlil qilish va rivojlantirishga qaratilgan kasbiy sifatlari, bilimlari va ko'nikmalarining integral majmuasini ifodalaydi. Tahlillar natijasida formativ baholash kompetensiyasining quyidagi asosiy xususiyatlari aniqlandi:

Birinchidan, formativ baholash o'quv jarayonining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. An'anaviy baholashda natija asosiy mezon sifatida qaralsa, formativ baholashda jarayonning o'zi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatish imkonini beradi [8; 126-b].

Ikkinchidan, formativ baholash o'quvchilar faoliyatiga tezkor teskari aloqa berishga xizmat qiladi. Teskari aloqa o'quvchining mavjud natijalarini tahlil qilish, kamchiliklarini aniqlash va keyingi rivojlanish istiqbollarini belgilash imkonini yaratadi [6; 88-b].

Uchinchidan, formativ baholash o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantiradi. O'z-o'zini baholash va o'zaro baholash mexanizmlari orqali o'quvchilarda refleksiya va mas'uliyat hissi shakllanadi [5; 74-b].

Tadqiqot davomida formativ baholash kompetensiyasining to'rtta asosiy komponenti aniqlandi.

Motivatsion komponent. Mazkur komponent pedagogning formativ baholashga bo'lgan ijobiy munosabati, kasbiy ehtiyoji va qiziqishini ifodalaydi. Pedagog formativ baholashning ta'lim sifatiga ta'sirini anglagan holda uni o'z faoliyatida muntazam qo'llashga intiladi.

Motivatsion komponent quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi:

- baholash faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashish;
- ta'lim sifatini oshirishga intilish;
- o'quvchilar rivojlanishiga ko'maklashish istagi;
- innovatsion baholash metodlariga qiziqish.

Kognitiv komponent. Kognitiv komponent pedagogning formativ baholashga oid nazariy bilimlarini ifodalaydi. Ushbu komponent doirasida pedagog:

- formativ baholashning maqsad va vazifalarini biladi;
- baholash mezonlarini ishlab chiqadi;
- kompetensiyaviy yondashuv mohiyatini tushunadi;
- zamonaviy baholash metodlarini biladi [3; 18-b].

Operatsion-faoliyatli component. Mazkur component pedagogning amaliy faoliyatida namoyon bo'ladigan ko'nikmalarni qamrab oladi. Ular:

- baholash vositalarini yaratish;
- kuzatish va monitoring olib borish;
- o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish;
- teskari aloqa berish;
- o'zaro va o'z-o'zini baholashni tashkil etish.

Operatsion-faoliyatli component pedagogning kasbiy mahoratini amalda namoyon etadi [10; 148-b].

Refleksiv component. Refleksiv component pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilishi va baholashi bilan bog'liq. Bu component:

- pedagogik faoliyat natijalarini baholash;
- qo'llanilgan metodlarning samaradorligini aniqlash;
- kasbiy rivojlanishni rejalashtirish;
- o'z ustida ishlash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, mazkur componentlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bir butun tizim sifatida faoliyat ko'rsatadi. Olingan natijalar formativ baholash kompetensiyasi zamonaviy ta'lim tizimida pedagogning muhim kasbiy kompetensiyalaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida pedagog faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarning rivojlanishini boshqaruvchi va qo'llab-quvvatlovchi subyekt sifatida maydonga chiqadi [1; 35-b]. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan formativ baholashning samaradorligi ko'plab ilmiy tadqiqotlar orqali isbotlangan. Black va Wiliam formativ baholash o'quvchilar o'zlashtirishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar [4; 42-b]. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, baholash natijalaridan o'quvchilar rivojlanishi uchun foydalanilgandagina u haqiqiy pedagogik qiymat kasb etadi. Heritage formativ baholashni o'qitish va o'rganish jarayonini bog'lovchi mexanizm sifatida tavsiflaydi [7; 53-b]. Bizning tadqiqot natijalarimiz ham ushbu qarashlarni tasdiqlaydi. Chunki formativ baholash o'quvchilarning ehtiyojlarini aniqlash va ta'lim strategiyalarini moslashtirish imkonini beradi. Hattie va Timperley tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda teskari aloqaning ta'lim natijalariga sezilarli ta'siri aniqlangan [6; 95-b]. Tadqiqotimiz natijalari ham formativ baholash kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida samarali teskari aloqani ko'rsatdi. Milliy pedagogik adabiyotlarda ham baholashning rivojlantiruvchi funksiyasi alohida ta'kidlanadi. Tolipov va Usmonboyeva pedagogik texnologiyalarning samaradorligi baholash jarayonining to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq ekanligini qayd etadilar [9; 102-b]. Mazkur fikr tadqiqotimiz natijalari bilan mos keladi. Shuningdek, formativ baholash kompetensiyasini rivojlantirish pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Refleksiv faoliyatning kuchayishi pedagogning o'z ustida ishlashi va kasbiy mahoratini takomillashtirishiga xizmat qiladi [10; 156-b]. Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish jarayonida formativ baholashning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Davlat ta'lim standartlari va ta'limni rivojlantirish strategiyalarida baholashning zamonaviy usullarini keng qo'llash zarurligi qayd etilgan [2; 17-b]. Shu sababli pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimida formativ baholash kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari formativ baholash kompetensiyasining zamonaviy ta'lim tizimida pedagogning muhim kasbiy kompetensiyalaridan biri ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot davomida formativ baholashning pedagogik mohiyati o'quvchilar rivojlanishini qo'llab-

quvvatlash, ta'lim natijalarini yaxshilash hamda o'quv jarayonini takomillashtirishga qaratilganligi bilan tavsiflanishi aniqlandi. Shuningdek, formativ baholash kompetensiyasi pedagogning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va kasbiy fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan yaxlit tizim sifatida namoyon bo'lishi asoslab berildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, formativ baholash kompetensiyasining tuzilmasi motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyatli va refleksiv komponentlardan iborat bo'lib, mazkur komponentlar o'zaro uzviy bog'langan holda pedagogning baholash faoliyati samaradorligini ta'minlaydi. Ayniqsa, samarali teskari aloqa, o'z-o'zini baholash va o'zaro baholash mexanizmlarining qo'llanilishi o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, refleksiv faoliyati va ta'limiy natijalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Shu bilan birga, formativ baholash kompetensiyasini rivojlantirish pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish, ta'lim jarayonini individuallashtirish hamda ta'lim sifatini yaxshilashning muhim omillaridan biri ekanligi belgilandi. Tadqiqot natijalari pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarida formativ baholash kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv modullari va metodik ta'minotni takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi. Umuman olganda, formativ baholash kompetensiyasi kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u o'quvchilarning shaxsiy va akademik rivojlanishini ta'minlash, pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish hamda ta'lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A. Avloniy nomidagi Milliy-tadqiqot institute. Kompetensiyaviy yondashuv asosida baholash metodikasi. Toshkent. 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti. Toshkent. 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Pedagogik ta'lim klasteri va kompetensiyaviy yondashuv asoslari. Toshkent. 2023.
4. Black, Paul, P., & Wiliam, Dylan, D. Assessment and Classroom Learning. Assessment in Education: Principles, Policy & Practice, 1998. 5(1), 7–74.
5. Brookhart, Susan M. How to Give Effective Feedback to Your Students (2nd ed.). Alexandria, VA: ASCD. 2017.
6. Hattie, John, J., & Timperley, Helen, H. The Power of Feedback. Review of Educational Research, 77(1), 2007. 81–112.
7. Heritage, Margaret. Formative Assessment: Making It Happen in the Classroom. Thousand Oaks, CA: Corwin Press. 2010.
8. Sadler, D. Royce. Formative Assessment and the Design of Instructional Systems. Instructional Science, 18(2), 1989. 119–144.
9. Tolipov, O'tkir, & Usmonboyeva, Mavluda. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya. 2019.
10. Tolipov, O'tkir. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O'qituvchi. 2015